# O’zbekistonda sayg’oqlar sanog’i o’tkazildi

2021-yilning fevral oyida “Saygachiy” kompleks (landshaft) buyurtmaxonasida doimiy marshrutlarda sayg’oqlarning sanog’i o’tkazildi.

Sanoqda kompleks buyurtmaxonaning hamda O’zbekiston Fanlar akademiyasi Zoologiya institutining Kamyob hayvon turlari hisobi va kadastri laboratoriyasi xodimlari ishtirok etdi.

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko’ra, hozirda qo’riqxona hududida rezident (mahalliy) va qishki janubga ko’chish paytida chegara devoridagi o’tish joylari orqali Qozog’istondan kirib kelishi mumkin bo’lganlar bilan birgalikda 100 ga yaqin sayg’oq yashaydi. Ma’lumot o’rnida shuni ta’kidlash lozimki, sayg’oq Qizil kitobga kiritilgan va u butunlay yo’qolib ketish arafasida turgan juda noyob tur hisoblanadi.

2012-yildan beri qo’llanilayotgan doimiy yo’nalishlar bo’yicha sayg’oqlarni ro’yxatga olish metodini qizg’in va ijodiy muhokama qilish natijasida mavjud ro’yxatga olish yo’nalishlarining joylashishi, ro’yxatga olish muddati va mohiyati bo’yicha uni takomillashtirishga doir fikrlar bildirildi. Bu sanoqning samaradorligi va ishonchliligini oshirishi kutilmoqda.

Ma'lumot uchun: 2012-yilning aprel oyida ushbu metod orqali sanoq o’tkazilganda o’rganilayotgan hududdagi sayg’oqlarning maksimal soni qayd etilgan va 525 tani tashkil etgan. 2021-yilda 10 nusxagacha bo’lgan hayvonlar kichik guruhlarining yangi izlari qayd etildi. Shuningdek, qish mavsumida kompleks bo’ylab joylashtirilgan fotoqopqonlarda bir necha bor qayd etilgan.

***Aleksandr Yesipov va Alisher Abduraxmonov.***